POLISEMANTIK VA OMONIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILISH USULLARI.

Mardiyeva Makhbuba Shavkatovna.
Senior teacher of SamSIFL**.**
Almaz Binnatova, professor of Azarbayjan

Annnotatsiya: Mazkur maqolada polisemantik va omonim frazeologik birliklarning tarjima jarayonidagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning ko‘p ma’nolilik va shakldosh ma’nolar asosida yuzaga keladigan semantik murakkabliklari tarjima jarayonida muhim muammolardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu birliklarni tarjima qilishda ekvivalent tarjima, izohli tarjima, funksional moslashtirish va kontekstual almashtirish kabi usullar yoritiladi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillari misolida frazeologik birliklarning ma’no xususiyatlari hamda ularni adekvat tarjima qilish yo‘llari qiyosiy tahlil asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, polisemantika, omonimlik, tarjima usullari, ekvivalent tarjima, kontekstual tarjima, semantik tahlil, frazeologizm, qiyosiy tilshunoslik, adekvat tarjima.

Maqol, matal va idiomalar tarjimasi masalasida fikr yuritilganda, mavjud adabiyotlarning aksariyatida bu bilan bog‘liq masala yechimiga oid munosabatlarning turli tavsifiga duch kelalamiz. Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch tamoyil hukm suradi: 1. Asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) asar o‘girilayotgan tildan mos keluvchi muqobil variant topib qo‘yish; 3) frazeologizmni, aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish. Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi[160].

“Inglizcha-ruscha frazeologik lug‘at”ning kirish qismida A.V.Kunin frazeologik birliklarni tarjima qilishda qo‘llanilgan usullar haqida ma’lumot bergan va buni quyidagi 6 usuldan iboratligini bayon qilgan:

1. Ekvivalent, ya’ni tarjima tilida ingliz tilidagi iboraning ham mazmuni, ham obrazini aks ettiradigan iborani topib tarjima qilish, masalan: *as cold as ice – muzdek sovuq – холодный как лёд.*

2. Analog, ya’ni ingliz tilidagi iboraga mazmunan muqobil, ammo obraz jihatidan farq qiladigan birlik topish, masalan:*a drop in the bucket – dengizdan tomchi – капля в море.*

3. Tasviriy tarjima, bunda inglizcha fraza tarjima tiliga frazeologik birlik bilan emas “erkin so‘zlar” (free word combination) yordamida tarjima qilinadi: *cross the floor of the house – bir partiyadan boshqasiga o‘tmoq – перейти из одной партии в другую.*

4. Antonim tarjima, ya’ni inkor shakldagi iborani tarjima tiliga bo‘lishli mazmun bilan yoki aksincha o‘girish: *Don’t count your chickens before they are hatched – Jo‘jani kuzda sanaymiz – Цыплятпоосени считают.*

5. Kalkalash yoki so‘zma-so‘z tarjima. Tarjimon inglizcha fikrlash, iboradagi obrazni ko‘rsatmoqchi bo‘lganda qo‘llaniladi: *The moon is not seen when the sun shines – Quyosh nur sochayotganda oy ko‘rinmaydi – Когда светит солнце, луны не видно.*

[160] G‘.Salomov Tarjima nazariyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1983. – 232 b.

6. Aralash tarjima (Combined translation). Tarjima tilidagi analog inglizcha iboraning mazmunini to‘liq ifodalay olmasa yoki vaqt va makon bo‘yicha turli koloritga ega bo‘lganda kalkalash, yoki tasviriy tarjima qo‘llanilib taqqoslash uchun qavs ichida tarjima tilidagi analog beriladi: *carry coals to Newcastle – Nyukaslga ko‘mir tashimoq, ya’ni biror narsa etarli bo‘lgan joyga o‘sha narsani olib bormoq (o‘rmonga o‘tin bilan bormoq) – возить угольв Ньюкасл,т.е. возить что-л. туда. где этого и так достаточно (ехать в Тулу со своимсамоваром)*[161].

Bu borada Sh.Safarovning ekvivalentlik borasidagi quyidagi fikrlari ahamiyatli: “Tarjimonning vazifasi muqobil variant yoki ekvivalentni topishdan iborat bo‘lsa, unda uning ekvivalentlik borasidagi tushunchasi individualdir. Hatto u barcha mavjud bo‘lgan va shakllanishi mumkin bo‘lgan ekvivalentlardan xabardor bo‘la turib, ularning qaysilarini inkor etish hamda qay birini tanlash “erkinligi”, imkoniga ega”.[162]

Tilshunoslikda frazeologik birliklarning semantik tabiatini o‘rganishga bo‘lgan jiddiy munosabat ushbu fan rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tadqiqiga doir bir qancha yondashuvlarning paydo bo‘lishi bilan bir qatorda, ushbu masalaga bo‘lgan qarashlar ham o‘zgarib boradi. FBlarning semantik tabiati ularning ma’no butunligi, ma’noning ko‘chishi, tarkibiy barqarorligi, ekspressivligi va milliy o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Shu jihatlar ularni oddiy so‘z birikmalaridan farqlab, tilning boyligi va ifodalilik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur bobda frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari, badiiy matn tarjimasida FB semantik xususiyatlarining ahamiyati “Shum bola” va “Yodgor” qissalari matni misolida tahlil qilinishi nazarda tutilmoqda.

Frazeologik birliklarning semantik tabiati haqida fikr bildirilganda, dastlab frazeologik ma’no haqida so‘z yuritish muhimdir. Ma’lumki, til leksik-frazeologik birliklarining barchasida shakl va ma’no bor. Shakl deganda, asosan, tilning material tomoni ko‘zda tutilsa, ma’lum shaklga biriktirilgan ma’no (mazmun plani) birlamchi sifatida yuzaga keladi. Tilshunoslikda leksik, grammatik, frazeologik ma’no tushunchalari mavjud. Biror predmetni, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlovchi ma’no leksik ma’no, grammatik shakliga oid ma’no esa grammatik ma’nodir. Frazeologik ma’no frazeologik semantikaning asosiy masalalaridan biri bo‘lib, uning mohiyatini anglash frazeologik va leksik ma’nolarni qiyoslashda namoyon bo‘ladi. A.V.Kunin, V.M.Mokiyenko, V.Teliya kabi frazeolog olimlar frazeologik birlikning ma’nosi leksik yoki erkin birliklar ma’nosiga qaraganda ancha murakkab ekanligini e’tirof etadilar[163].

Frazeologik ma’no ham leksik ma’no kabi frazeologik birlikning tushuncha yoki g‘oya bilan, obyektiv voqelik bilan, tilning boshqa leksik va frazeologik belgilari bilan o‘zaro uzviyligiga bog‘liq. FBlar ham leksema va morfemalar kabi ifoda va mazmun planiga ega. Yirik til birligi sanalgan frazema kamida ikkita mustaqil ma’noli leksemadan tashkil topadi. Demak, FBning ifoda plani uni tashkil etgan so‘zlar hisoblanadi, frazema ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig‘indisiga teng emas. Unga xos ma’no tarkibidagi leksemalarning ma’nosiga

[161] А.В. Кунин Англо-русский фразеологических словарь. – М.: Рус. яз., 1984. – 944с.

[162] Сафаров Ш. Таржима компетенциясининг таркибий қисмлари // “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнали. journal.fledu.uz № 3/2019. – Б. 113.

[163] Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка [Текст] / А. В. Кунин. – М.: Высш. шк.; Дубна: Феникс, 1996. – 381 с.; Мокиенко В. М. Славянская фразеология [Текст] / В. М. Мокиенко. – М.: Высш. шк., 1989. – 287 с.; Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический, и лингвокультурологический аспекты [Текст] / В. Н. Телия. – М.: Школа русской культуры, 1996. – 290 с.

nisbatan maxraj ma’no, ustama ma’no sifatida gavdalanadi. Bu ma’no ibora tarkibidagi leksemalarning ma’nosiga suyanmasligi ham mumkin. “Iboraning ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig‘indisi, shular ustiga qurilgan, ya’ni bir ma’no bo‘lishi sababli, iboralarda go‘yo ma’no, go‘yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo‘lad. Xususiy (qismlarga xos) ma’nolar umumiy (iboradan anglashiladigan) ma’noni to‘g‘ridan to‘g‘ri izohlab turmaydi, shu sababdan iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog‘lanish shartlilik kashf etadi. Bu yerda bittadan ortiq so‘z yaxlitligicha ma’lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko‘chma ma’noga frazeologik ma’no deyiladi”[164]. Masalan: *bir-ikki yaktak ko‘proq yirtgan* iborasi *“yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko‘proq”* ma’nosini anglatadi. Bu ma’no to‘g‘ridan to‘g‘ri ibora tarkibidagi leksemalarning ma’nosidan kelib chiqmaydi. Masalan, *Sobir har kuni bir-ikki yaktak ko‘proq yirtadi* gapida erkin birikma ishlatilgan. Bunday ishlatishda *yaktak* va *yirtmoq* so‘zlari ma’no mustaqilligini saqlab bog‘lanadi, ma’noda yaxlitlanish yuz bermaydi. G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasidan olingan quyidagi misolda yuqoridagi erkin birikmaning ibora shakli qatnashmoqda: *Omon mendan bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan.* Chunki bu gapda *yaktak* va *yirtmoq* so‘zlaridan emas, balki *yaktak yirtmoq* iborasidan foydalanilgan. Endi *yaktak* va *yirtmoq* so‘zlariga xos ma’noning oddiy yig‘indisi haqida emas, balki ustama ko‘chma ma’no haqida gapirish lozim. Bunday ma’no obrazga suyanib yuzaga keladi. *Yirtmoq* fe’li ma’nosidan kelib chiqsak, kiyimlarni yirtishni tushunamiz. Yuqoridagi misolda esa *yaktak* so‘zining boshqa ma’nosi (“tajriba”) qatnashadi, *yirtmoq* fe’lining ma’nosi shu “tajriba” ma’nosini “ko‘paytish” darajasiga aniqlashtiradi (tajribasi ko‘p va yoshi katta), ya’ni boshqalardan ko‘ra qaysidir sohada tajribasi ko‘proq inson ko‘z oldimizda gavdalanadi. Yuqoridagicha obrazli tasavvurlar oqibati sifatida ayrim-ayrim so‘zlarning ma’nosi ikkinchi planga o‘tib, birikmadan yaxlitligicha yangi bir ma’no anglashiladi. Ana shunday ma’no *frazeologik ma’no* hisoblanadi.

Demak, frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o‘ziga xos qarama qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko‘ra frazeologik birliklar alohida yondashishni, o‘rganishni talab qiladi.

REERENCES:

1. M. Mardiyeva. G‘.G‘ulom asarlarida qo'llangan frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili/ Educational Research in Universal Sciences. 105-109. 2023.
2. M. Mardiyeva. Frazeologik birliklarni tarjima qilishning muqobil usullari haqida/ Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. 674-676.
3. Насруллаева Н.З. Инглиз тили фразеологик бирликлар семантикасидаги гендер концепцияси: Филол. фан. докт. дисс. … афтореф. – Тошкент, 2016. – 103 б.
4. Носиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий маданий хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. афтореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2016. – 96 б.
5. Одилова Г.К. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърияти таржималарида адекватлик муаммолари: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2011. – 153 б.

[164] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили фразеологизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1978. – Б.23.